



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RIYATIDA AYOL OBRAZINING TARIXIY ILDIZLARI

Туропова Наргиза

Annotatsiya

Mazkur maqolada Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida ayol obraziga murojaatida tarixiy manbalariga tayanishi va uning obraz yaratishdagi badiiy mahorati tahlilga tortilgan. Shoira lirikasida ayol timsolining shakllanish manbalari: xalq og'zaki ijodi, o'zbek mumtoz adabiyoti, ayol shoirlar an'anasi, tarixiy-afsonaviy ayol siymolari hamda o'zbek nasridagi ayol obrazlari bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilinadi. Ayniqsa, To'maris, Uvaysiy, Nodira, Zulfiya, va Kumush singari ayol timsollariga bag'ishlangan yoki ular bilan ruhiy-badiiy aloqada bo'lgan she'rlar orqali Halima Xudoyberdiyeva she'riyatidagi ayol obrazining tarixiy ildizlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Halima Xudoyberdiyeva, ayol obrazi, tarixiy ildizlar, Uvaysiy, Nodira, Zulfiya, To'maris, Kumush, ayol obrazi, tarixiy xotira.

Kirish

O'zbek adabiyotida ayol obrazi ko'p asrlik tarixiy taraqqiyot mahsuli bo'lib, u xalqning badiiy tafakkuri, ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Ana shu tarixiy-adabiy davomiylikni zamonaviy she'riyatda o'ziga xos badiiy yuksaklik bilan davom ettirgan ijodkorlardan biri Halima Xudoyberdiyevadir. Shoira she'riyatida ayol obrazi turli davr va qatlamlarga mansub ayol siymolarini o'z ichiga oladi, shu bois uning ijodida ayol obrazining tarixiy ildizlarini o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Uning she'riyatidagi ayol obrazini



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

to‘laqonli anglash uchun, avvalo, ushbu obrazning tarixiy ildiziga murojaat qilish zarur.

Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatida ayol obrazini yaratishda xalq og‘zaki ijodi muhim o‘rin egallaydi. Uning doston, she‘riy qissa ballada janrlarida yaratilgan asarlarida milliy tarix, ayol qismati va insoniy qadriyatlarni chuqur va ta‘sirchan ifodalashga erishgan. Halima Xudoyberdiyevaning “Ona sadoqati va o‘g‘il armoni” she‘riy qissasi shoira ijodida ayol obrazining xalqona va tarixiy ildizlarini yoritishda muhim o‘rin tutadi. Asar baxshiyona ruhda yozilgan bo‘lib, unda o‘zbek xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan dostonchilik an‘analari, ayniqsa, og‘zaki nutq, takrorlar va jo‘shqin monologlar keng qo‘llanadi. Bu esa asarning badiiy ta‘sir kuchini oshirib, uni xalqona ruh bilan sug‘oradi.

“Bekor jang-u xunlar uchun aza oching
Yolg‘iz o‘tgan tunlar uchun aza oching
Hatto tog‘ning ayiqlari juft axtarar
Siz, so‘qqabosh kunlar uchun aza oching.”¹

Asarda ayol obrazi — ona va kelin timsolida — yuksak sadoqat, sabr va matonat egasi sifatida tasvirlanadi. Sayram kelin obrazi orqali ayolning umr bo‘yi fidoyilik bilan yashashi, o‘z baxtidan voz kechib, farzand va oila uchun yashashi ochib beriladi. Bu jihatlar o‘zbek xalq dostonlaridagi sadoqatli ayol obrazlari bilan mushtaraklik kasb etadi. Ayniqsa, ayolning ichki iztiroblari, monolog tarzida berilgan dardli so‘zlari baxshiyona uslubni eslatib, xalq og‘zaki ijodidagi epik va lirik unsurlar uyg‘unligini namoyon qiladi.

Halima Xudoyberdiyevaning “Qush tiliga yovuq kelsa qush tili...” she‘ri shoira ijodida ayol obrazining ijtimoiy va tarixiy talqinini yanada chuqurlashtiruvchi asar sifatida e‘tiborga loyiqdir. She‘r boshida Kuntug‘mish dostonidan keltirilgan epigraf orqali muallif xalq og‘zaki ijodi an‘analariga murojaat qiladi. Biroq shoira

¹ Xudoyberdiyeva, H. Muqaddas ayol. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

bu an'analarni shunchaki takrorlamay, balki ular doirasida shakllangan ayolga nisbatan qarashlarni tanqidiy ruhda qayta ko'rib chiqadi.

“Asli erkak, ayol birday yo'l izlar
Donish aql, uddaburon qo'l izlar
Ayting, ayting, kulli o'tgan azizlar
Nechuk ayol ko'ngli doim zor keldi”²

Asarda ayol obrazi erkak bilan teng huquqli, hayot yo'lini izlovchi, aql va tafakkur egasi sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, jamiyatda ayolning kamsitilishi, uning ko'ngli “zor” holda tasvirlanishi orqali tarixiy adolatsizliklar ochib beriladi. Odam Ato va Momo Havvo obrazlariga murojaat qilish esa ayol taqdirining qadimiy ildizlarini yoritishga xizmat qiladi. Shu tariqa, shoira xalq og'zaki ijodi an'analarga tayangan holda ayol obrazini tarixiy, ma'naviy va badiiy jihatdan mukammal darajada ifodalaydi.

Halima Xudoyberdiyeva she'riyatidagi ayol obrazining tarixiy ildizlarini belgilashda mumtoz adabiyot alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, ayol shoirlar ijodida ayolning ichki kechinmalari, ruhiy iztirobi, orzu va armonlari ko'proq ichki nutq va hissiy-lirik qatlamlar orqali ifodalangan. Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida ayol obrazining tarixiy ildizlarini belgilovchi eng muhim manbalardan biri — Uvaysiy va Nodira singari mumtoz ayol shoirlar ijodidir. Shoira o'zini Nodiraning davomchisi sifatida ko'radi va bu haqida she'rlarida aytib o'tadi:

“Inshoolloh, bo'lsa umr vafosi
Men xalqimning suyanch tog'i bo'lurman
Nodiraning qayta kelgan sadosi
Turk-Turonning qo'ng'irog'i bo'lurman”.³

² Xudoyberdiyeva, H. Muqaddas ayol. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.

³ Xudoyberdiyeva, H. Saylanma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida mumtoz ayol shoirlar singari ayol qalbining ichki titroqlari, iztiroblari, nozik ruhiy kechinmalari hamda sabr va armonlar chuqur ifodalab bergan. Yuqoridagi she'rni mantiqiy davom ettirganday yana bir she'rida quyidagi misralarni bitadi:

“Men Turonning qadim qo'ng'irog'imen

Jarang bersam qir-dalasi uyg'onar

Arosatda biroz tindim chog'i men

Sahar ko'nglim shalolasi uyg'onar”⁴

Halima Xudoyberdiyeva she'rlarida ko'p bor Uvaysiy va Nodiraga murojaat qiladi. Bu murojaat shoironing o'zbek adabiyotida ayol obrazining tarixiy-adabiy tayanchga ega ekanligini ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, Halima Xudoyberdiyeva ayol obrazini yaratishda tarixiy ildizlarga e'tiborini qaratadi.

Uvaysiyning “Uvaysiyman” radifli g'azalida shunday satrlar bor:”Qayda dard eli bo'lsa muhtalo Uvaysiyman”⁵. Shoira esa bunga javoban “Mubtalolik dardiga merosxo'rman momojon”⁶ deb yozadi. Shoira bu bilan sizning davomchingizman demoqchi bo'layotgaday.

“Garchand bugun suymoq,kuymoq dardi kam

Yo rab,ertaga ham to'lib o'tmasa

Bu dunyoda yo'q deng Halimani ham

Kamida Nodira bo'lib o'tmasa”⁷

Shoira juda ko'p she'rlarida Nodira tilidan murojaat qiladi yoki Nodiraga murojaat qiladi. Bu kitobxon qalbiga chuqur ta'sir etib, uni tarixiy xotira va bugungi kun o'rtasida uzilmas rishta paydo qiladi.

⁴ Xudoyberdiyeva, H. Saylanma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000

⁵ Uvaysiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1975.

⁶ Xudoyberdiyeva, H. Saylanma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000 Bu o't she'ri

⁷ Xudoyberdiyeva, H. Saylanma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Shuningdek, Halima Xudoyberdiyeva ijodida To‘maris siymosi ham alohida o‘rin egallaydi. Shoira bu obraz orqali ayolning jasorati, vatanparvarligi va erk uchun kurash ruhini yuksak badiiy talqin etadi. Uning ”Tilovchiman”, ”Bir qadam oldinga”, ”Ayolga bosh urish”, To‘marisning aytgani, ”O‘sh-O‘zganning bolalari”, ”Xavotir”, ”To‘marisga iltijo”, ”Ulgi”, ”Yig‘ladim, xudojon” kabi she‘rlarida To‘maris — nafaqat tarixiy shaxs, balki erksevarlik va matonat timsoli sifatida gavdalanadi.

“Qadim hayot yo‘llarida
Ko‘pdir zoti-ayol, bas
To‘marisning qo‘llaridan
Tug‘ olmagan ayolmas”⁸

Halima Xudoyberdiyeva To‘maris obraziga murojaat qilar ekan, uni oddiy tarixiy qahramon sifatida emas, balki millat sha‘ni va g‘ururining mujassam ifodasi sifatida tasvirlaydi. Shoiraning she‘rlarida To‘maris obrazi orqali ayolning kuchi, irodasi va qat‘iyati ulug‘lanadi. Bu esa kitobxon qalbida faxr va iftixor tuyg‘ularini uyg‘otadi.

Shoiraning To‘marisga bag‘ishlangan satrlarida kuchli pafos, baland ruh va ichki isyon sezilib turadi. Bu she‘rlar orqali u zamonaviy ayollarni ham jasoratli bo‘lishga, o‘z qadrini anglashga va Vatanga sadoqat ruhida yashashga chorlaydi.

Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatida ayol obrazining tarixiy ildizlari bu bilan chegaralanib qolmaydi. Bu davomiylik zamonaviy o‘zbek she‘riyatida ham yangi mazmun kasb etgan bo‘lib, bu jarayonda Zulfiya siymosi alohida o‘rin tutadi.

Halima Xudoyberdiyevaning Zulfiya siymosiga bag‘ishlangan “Siz haqingizda o‘ylaganlarim...” nomli she‘ri shoiraga bo‘lgan hurmat, hayrat va ichki iztirob

⁸ Xudoyberdiyeva, H. Saylanma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2000
Ayolga bosh urish she‘ri



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

uyg'unligida yaratilgan bo'lib, unda ijodkor qalbining nozik kechinmalari chuqur aks etadi.

“Malikam, nima aytay, men bugun Sizning haqda,
Kolumbdoy ochgansiz-ku o‘z qalbingiz – qit’ani.
Aytmay desam, bu yurak nimagadir ilhaqday,
Aytay desam sarosar, lolman qalam tutgani.”⁹

Mazkur she’rda Zulfiya obraziga oddiy shoir emas, balki butun bir ma’naviy olamni ochgan buyuk siymo sifatida yondashiladi. Shoira uni “o‘z qalbini qit’a kabi kashf etgan” Kolumbga qiyoslaydi. Bu o‘xshatish orqali Zulfiya ijodining kengligi, teranligi va inson qalbini zabt etish qudrati yuksak badiiy talqin etiladi.

She’rda yana bir muhim jihat — ustoz va shogird munosabatidir. Halima Xudoyberdiyeva o‘zini va o‘z davrining boshqa ijodkorlarini Zulfiya parvarishlagan “nihollar”ga qiyoslaydi. Bu yerda ustozning tarbiyaviy, ruhiy va ijodiy ta’siri nihoyatda ta’sirchan obrazlarda ochib beriladi.

“Ustoz, Siz ishonasiz, so‘z porlasa xuddi ishq,
Yulduzlarning chaqnashi, oying tutilmog‘iga.
Ham ortiq ishonasiz. Siz bitmagan shohqo‘shiq
Kelarlar qo‘li bilan albat bitilmog‘iga”¹⁰

“Siz haqingizda o‘ylaganlarim...” she’ri Halima Xudoyberdiyevaning ustoziga bo‘lgan cheksiz ehtiromi, ijodiy qarashlari va ayol ruhiyatining badiiy ifodasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu she’r orqali nafaqat Zulfiya siymosi, balki ustoz-shogird an’anasining o‘zbek adabiyotidagi davomiyligi ham yorqin namoyon bo‘ladi.

⁹ Xudoyberdiyeva, H. Saylanma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000.

¹⁰ Xudoyberdiyeva, H. Saylanma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Halima Xudoyberdiyevaning “Ayol monologi” she’rini ham ayol obrazini tarixiy va madaniy ildizlarga tayangan holda talqin qilishimiz mumkin:

“Renuar meni nurdan chizib chiqqan, bilasiz,
Petrarka “iloham” deb ko‘zin tikkan, bilasiz,
Navoiy uzun umrin, o‘zin tikkan, bilasiz,
Bilasiz qay kuch bilan band etgayman xayolni,
Nahot yovuz ataysiz Siz hattoki ayolni ”¹¹

Shoira ayolni Petrarka, Navoiy, Renuar kabi buyuk siymolar nigohida yuksak darajaga ko‘taradi. Bu orqali ayol obrazi nafaqat zamonaviy, balki asrlar davomida shakllangan muqaddas va ilohiy timsol sifatida gavdalanadi.

Halima Xudoyberdiyevaning she’riyatida o‘zbek adabiyotidagi yirik nasriy asar — O‘tgan kunlar qahramonlari orqali ayol ruhiyati va fojiviy taqdirini badiiy talqin etgan. Shoira Abdulla Qodiriy yaratgan Kumush obrazi orqali ayolning muhabbat yo‘lida chekkan iztiroblari, sadoqati va qurbonligi chuqur hissiylik bilan ochib beriladi. Shoira Kumushning o‘lim sahnasini tasvirlar ekan, uning ruhiy holatini yanada keskinlashtiradi va fojiaga falsafiy ma’no yuklaydi.

Halima Xudoyberdiyeva “Kumushning o‘limi” she’ri orqali nasriy obrazni lirika maydoniga olib kirib, uni yangi badiiy talqin bilan boyitadi. Kumush endi faqat tarixiy qahramon emas, balki bugungi kun ayollari bilan hamohang, ularning dardi va orzularini ifodalovchi ramziy timsolga aylanadi. Shoira she’r yakunida zamonaviy ayollarga murojaat qilib, ularni “bugungi Kumushlar” deb ataydi va shu orqali ayol sadoqati, sabri va muhabbatdagi matonatini ulug‘laydi.

“Qay ayolki oh urib ishqin aytib keladir
Hayolimda u bilan Kumush qaytib keladir
Siz bugungi Kumushlar, ayol zotin sarasi

¹¹ .Xudoyberdiyeva, H. Muqaddas ayol. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.Xudoyberdiyeva, H. Saylanma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000.
- 2.Xudoyberdiyeva, H. Oq olma. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1988.
- 3.Xudoyberdiyeva, H. Muqaddas ayol. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
- 4.Zulfiya. Asarlar to‘plami. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1985.
- 5.Nodira. Devon. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991.
- 6.Uvaysiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1975.
- 7.Abdulla Qodiriy. O‘tgan kunlar. – Toshkent: Sharq, 1994.
- 8.Sharafidinov, O. Ijodni anglash baxti, -Toshkent: Sharq, 2004,
- 9.Internet manbalari:
www.ziyonet.uz